

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK – QURILISH
INSTITUTI**



**“O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN, TA‘LIM VA
TEKNOLOGIYANI RIVOJLANTIRISHNING
DOLZARB MASALALARI”**

**mavzusida respublika miqyosida ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari to‘plami**

Namangan shahri
24-25-sentabr 2021 yil

“O‘zbekistonda ilm-fan, ta’lim va texnologiyani rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

To‘plamga **2021 yil 24-25 sentabr** kunlari institutda o‘tkazilgan **“O‘zbekistonda ilm-fan, ta’lim va texnologiyani rivojlantirishning dolzarb masalalari”** mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy ma’ruza materiallari kiritilgan.

NamMQI, 24-25-sentabr, 2021 yil, Namangan shahri

Tahrir hay’ati:

t.f.n.dots.Sh. T.Ergashev, f-m.f.d.M.Dadamirzaev, prof.G.Gulomov,
prof.I.Shamshidinov, prof.N.Boyboboev, prof.Yu.Apakov, prof.V.Xojiboev,
prof.Sh.Yuldashev, prof.M.Ismoilov, prof.V.Turdaliev, t.f.d.R.Soliev,
dots.Sh.Abduraxmanov, dots.O.Jakbarov, dots.M.To‘xtasinov, dots.S.Xoshimov,
dots.M.Olimov, PhD.A.Isomiddinov, t.f.n.Q.Inoyatov, A.Otaxonov, F.Irisqulov,
A.Dehqonov.

Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi 78-F-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan ilmiy-tadbirlar rejasiga asosan o‘tkazildi.

3. Тайланова Ш.З Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида кадрятлар тизимини ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш: Пед. фан. док. ... дис. – Самарқанд., 2019. – 243б.

4. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Т., “Fan va texnologiya” нашриёти, 2012. – 165 б.

FE'LLARDA ZAMON VA ASPEKT MUNOSABATI

E.Xonnazarov

(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Real vaqtning tilda aks etishi masalasi bilan qadimgi davrlardan olimlar qiziqib kelishgan. Dastlabki tadqiqotlar falsafa va mantiq fanlariga uzviy bog'liqlikda amalga oshirilgan. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida shakllanganidan so'ng dunyo tillarida zamon kategoriyasining ifodalanishidagi ko'plab umumiy jihatlar aniqlandi. Mazkur kategoriyaning keyingi tadqiqi turli davrlarda tilshunoslikda ustuvor bo'lgan yo'nalishlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirildi.

Jahon tilshunosligida zamon ma'nosini anglatadigan grammatik, leksik, sintaktik til vositalari bir butunlikda temporal kategoriya sifatida o'rganilishi an'anaga aylangan. Shu sababli ko'p tadqiqotlarda zamon aspekt bilan birgalikda o'rganiladi. Jumladan, ingliz va rus tilshunosligida zamon kategoriyasiga bag'ishlangan aksariyat ishlarda zamon aspekt bilan aloqadorlikda tekshiriladi. Bunda grammatik aspekt deganda fe'l lug'aviy ma'nosidagi ma'lum bir semalarning uning zamonda qo'llanilishiga ta'siri tushuniladi. Davomiylik (progressive), tugallanganlik, natijaviylik (perfect) kabilar aspektual tasnif mezonlari sifatida qaraladi. Zamoni aspektga bog'lab o'rgangan olimlardan biri Z. Vendler fe'llarning zamonga munosabat jihatdan o'ziga xos ma'noviy farqlarga ega ekanligini aniqladi va ularni tasnifladi [1]. Keyinroq M.Moens va M.Stedman kabi olimlar tomonidan ham zamon ifodalashda o'ziga xosligiga ko'ra fe'llarning aspektual kategoriyalari o'rganildi[2]. Bu boradagi mavjud tasniflarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Holat fe'llari: to love – sevmok, to know – bilmoq, to think – o'ylamoq kabilar. Ular muayyan turg'unlikni ifodalab, davomiy zamonlarda qo'llanila olmaydi (1-misol). Shuningdek, Z.Vendler bu fe'llar ba'zida kontekstga bog'liq holda davomiylikni ham ifodalashi mumkinligini aytib o'tadi va u holatda fe'l faoliyat-jarayon aspekti guruhiga mansub bo'ladi (2-3-misol).

1. John loves art. (Jon san'atni sevadi).

2. He thinks that Jones is a rascal. (U o'ylaydiki, Jones qallob).

3. He is thinking about Jones. (U Jones haqida o'ylayapti).

1-2-misollarda fe'l umumiy vaqtda mavjud turg'un holatni anglatayotgan bo'lsa, 3-misoldan muayyan vaqtda davom etayotgan faoliyat ma'nosi anglashiladi.

2. Faoliyat-farayon fe'llari. Bu fe'llar mazmunidan muayyan vaqtda davom etayotganlik, lekin faoliyatning tugash nuqtasi mavjud emasligi tushuniladi. Masalan, to run – yugurmoq, to drive (a car) – (mashina) haydamoq fe'lida shu mazmun ifodalangan. Ular davomiylik xususiyatiga ega bo'ladi.

3. Natijaga yoʻnalgan faoliyat-jarayon feʼllari. Z. Vendler tushuntirishiga koʻra, bu aspektda ham faoliyat-jarayon muayyan vaqtda davom etadi, lekin uning tugash nuqtasi mavjudligi maʼnosi bilan oldingi guruhdan farq qiladi. Bu maʼno ifodalanishi uchun faoliyat-jarayon nima ustida amalga oshayotganligi ham koʻrsatilishi kerak boʻladi. Masalan, *draw a circle – aylana chizmoq*.

4. Lahza feʼllari. Bu aspektda harakat-holat vaqtning bir nuqtasida bir onda sodir boʻladi va davomiylik xususiyatiga ega boʻlmaydi. Bunda feʼl mazmunidan oxirgi erishilgan natija anglashiladi. Masalan, *to find - topmoq, to lose - yoʻqotmoq, to die - oʻlmoq, to spot - ilgʻamoq* kabi feʼllar mazmunidan yuqoridagi maʼno anglashiladi.

Odatda feʼlning qaysi zamon maʼnosini ifoda etayotganligini tekshirishda quyidagi uch vositaga eʼtibor qaratiladi:

a) morfologik koʻrsatkich, yaʼni feʼl tarkibida qaysi zamon qoʻshimchasi mavjudligi;

b) kontekst, yaʼni feʼl turli nutqiy qurshovda atrofidagi soʻzlar taʼsirida turli zamon maʼnosini ifoda etishi mumkin;

d) feʼlning leksik maʼnosi, yaʼni turli feʼllarga bir xil morfologik koʻrsatkich qoʻshilsa-da, har xil zamon maʼnosi anglashilishi mumkin. Bu jihat bevosita feʼllarning aspectual jihatiga aloqadordir. Masalan: *kelaman* feʼli -a grammatik zamon koʻrsatkichini olgan holda kelasi zamon maʼnosini ifoda etsa, *sevaman* feʼli xuddi shu zamon koʻrsatkichi bilan hozirgi zamon maʼnosini anglatadi. Demak, bu yerda farq feʼl asosidan anglashilayotgan maʼno bilan bogʻliq.

Oʻzbek tilshunosligida zamon kategoriyasini oʻrganishga bagʻishlangan baʼzi ishlarda zamon maʼnosini aniqlashtirishda morfologik koʻrsatkich va kontekstdan tashqari feʼlning leksik maʼnosi ham ahamiyat kasb etishi taʼkidlanadi[3]. Biroq bu ishlarning hech birida feʼllarning zamon ifodalashiga koʻra aspektual guruhlari ajratilmagan. Ehtimol, turli tilshunos olimlarning zamon shakllari tasnifidagi har xilliklar va koʻplab istisnoli vaziyatlarni mana shu jihat orqali tushuntirish va umumlashtirish mumkindir. Nutqiy qurshovdan tashqarida bir xil morfologik koʻrsatkichga ega turli feʼllarning turli zamon maʼnolarini ifoda etishini ularning lugʻaviy maʼnolaridagi oʻziga xoslik bilan tushuntirish mumkin. Ayni mana shu lugʻaviy maʼnolardagi oʻziga xosliklarni nisbatan umumlashtirish asosida feʼllarning aspektual tasniflari amalga oshiriladi.

Aytish mumkinki, zamon kategoriyasining aspekt bilan birga oʻrganilishi hamma feʼl ham hamma zamon shakllarini birdek qabul qila olmasligi bilan boʻgʻliq jarayonlarni tushuntiradi va juda koʻplab istisnoli holatlarning sabablarini ochib beradi. Shu jihatdan, oʻzbek tilshunosligida zamon ifodalashiga koʻra feʼllarni aspektual tasniflashga ehtiyoj seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Vendler Z. *Linguistics in philosophy. (Verbs and times)*. - New-York: Cornell university press, 1967. -P. 97-121.

2. Moens M. and Steedman M. *Temporal Ontology and Temporal Reference // Computational Linguistics*. – June, 1988. – P. 15-28.

3. Sulaymonov A., Hojiyev A., Joʻrayeva J. *Feʼl zamonlari*. – Toshkent, 1962. –B.117.

МУНДАРИЖА

IJTIMOIY-IQTISODIY SOHALARDA TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION AXBOROT VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ROLI

<i>ф. ф. д. профессор М. Исмоилов (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)</i> ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИЛҒОР ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТЛАР МАҚОМИ	5
<i>катта ўқитувчи А. Ў.Адашев (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)</i> КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМА ХУСУСИЯТИ	7
<i>т.ф.н., доцент Қ.С.Раҳманов (Ўзбекистон халқаро ислом академияси “Замонавий АКТ” кафедраси мудури) Б.Қ.Махманов (“Mehnat.uz” МЧЖ да дастурчи)</i> ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ФАОЛИЯТИ МОНИТОРИНГИ АХБОРОТ IDEF-МОДЕЛИНИНГ ЎРНИ	9
<i>О.О.Собиров (Наманган муҳандислик-технология институти)</i> БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИ САМАРАЛИ ЮРИТИШДА ХАРАЖАТЛАРНИ ЎРНИ	11
<i>Ҳ. Жўраев (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)</i> ХХАСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДА ТАЪЛИМ СОХАСИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ИСЛОХОТЛАР	13
<i>S.Dehqonova (Namangan muhandislik-qurilish instituti)</i> БИОЭТИКА YANGI ZAMONAVIY FAN SIFATIDA	15
<i>Г.К.Мамажонов (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)</i> БИОЭТИКАДА ИНСОНПАРВАРЛИК ҲОЯЛАРИНИ КОНСТРУКТИВ- РАЦИОНАЛ БАҲОЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ	17

И.Б.Ашуров_(“Ўзбектелеком” Акциядорлик компанияси “Телекоммуникация ва персонални ривожлантириши маркази” филиали директори ўринбосари, Абдулла Авлоний номидаги халқ таълими муаммоларини ўрганиши ва истиқболларини белгилаши илмий тадқиқот институти мустақил тадқиқотчиси)

ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ЙЎНАЛИШИДА РАХБАР КАДРЛАРНИ
УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ 18

катта ўқитувчиси Б.Б.Исхаков_(Наманган муҳандислик-қурилиши институти)

ЧОРВАЧИЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ АНЪАНАЛАРДА ЭТНОЭКОЛОГИК
ҚАРАШЛАР(ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЎЗБЕКЛАРИ МИСОЛИДА) 21

A.G'afforov,_(Namangan davlat universiteti)

SHAXS GA NISBATAN INDIVID ATAMASINI QO'LLASH QAY DARAJADA
MAQSADGA MUVOFIQ? 24

катта ўқитувчи Х.Мухиддинова_(Наманган муҳандислик-қурилиши институти)

ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ҲАЁТИДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ ВА
УНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ АСОСЛАРИ 28

катта ўқитувчи Х.Мухиддинова (Наманган муҳандислик-қурилиши институти)

МИЛЛИЙ МАЪНАВИЯТГА ТАҲДИД ВА УНИ БАРТАРАФ ЭТИШ
ОМИЛЛАРИ 31

dotsent S. Karimboeva, F.T. Ma'murova_(Namangan muhandislik-qurilish instituti)

ТА'ЛИМНИНГ САМАРАДОРЛИГИДА ХОТИРА ВА SHAXS TAJRIBASINING
BOYLIGI..... 34

Мумин Мирзо Абдупаттаев_(Ўзбекистон халқаро ислом академияси ҳузуридаги малака ошириши маркази)

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИ..... 37

<i>А.Отаханов_(Наманган муҳандислик-қурилиш институти)</i>	
ИСЛОМ ТАЪЛИМОТИДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИК МАСАЛАЛАРИ	41
<i>ф.ф.н., доцент Н.Шайдуллаев,Б.Шайдуллаев_(Наманган муҳандислик- қурилиш институти)</i>	
ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ – ЖАМИЯТ.....	43
ҲАЁТИНИНГ БОШ МЕЪЗОНИ.....	43
<i>А.У.Қориев_(Namangan viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi)</i>	
NAMANGAN ME’MORIY OBIDALARI VA ULARNING АНАМИЯТИ	45
<i>М.Мадрахимова, Ф.Шарипова,Р.Н.Тешабаев_(Наманган муҳандислик- қурилиш институти)</i>	
КОМПЮТЕР ЎЙИНЛАРИНИНГ БОЛА ПСИХОЛОГИЯСИГА САЛБИЙ ТАЪСИРЛАРИ	47
 ОЛИЙ ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТА’ЛИМ СИФАТИ ВА МАЗМУНИНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISHNING ИЛМИЙ-NAZARIY ASOSLARI	
<i>Д. Ахунов, О.Партиев_(Наманган муҳандислик-қурилиш институти)</i>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИ ОШИРИШ ВА УНГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР	51
<i>dotsenti, t.f.n. Madrahimov Zohid (Namangan davlat universiteti)</i>	
О‘ЗБЕКISTONDA ОЛИЙ ТА’ЛИМ ТИЗИМИ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR.....	53
<i>Н.Абдуллажсанова_(Наманган муҳандислик-қурилиш институти)</i>	
ТАЪЛИМДА ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ	56
<i>Ж.Юлдашев_(Наманган давлат университети)</i>	
ТАЛАБАЛАРНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ МЕЗОНЛАРИ	58

<i>E.Xonnazarov_(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti)</i>	
FE’LLARDA ZAMON VA ASPEKT MUNOSABATI	62
<i>ф.ф.н. Феруза Низамова (Ўзбекистон халқаро ислом академияси)</i>	
ТИЛ ЎРГАТИШНИНГ МАҲСУЛДОР УСУЛЛАРИДАН БИРИ.....	64
<i>Z.Sh.Chuliyeva_(Navoiy davlat pedagogika instituti)</i>	
КОМПЕТЕНСИЯВИЙ YONDASHUV ASOSIDA KIMYO DARSLARINI TASHKIL ETISH.....	66
<i>A.B.Xasanov_(Samarqand davlat arxitektura-qurilish institute)</i>	
ANIQ FANLARNI O‘QITISHDA “JADVAL” METODI.....	68
<i>R.A.Tursunov (Namangan davlat universiteti)</i>	
TA’LIM TIZIMIDA MANBAASHUNOSLIK MADANIYATI HAMDA MILLIY MA’NAVIY TAMOYILLAR HARAКТЕРI	70
<i>Г.Ф.Шерқўзиева.,Н.Р.Самигова_(Тошкент тиббиёт академияси)</i>	
КОММУНАЛ ГИГИЕНА ФАНИДАН АМАЛИЙ МАШГУЛОТЛАРДА ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	72
<i>доцент А.Қ.Ҳайдаров ,доцент К.Х.Абдуллаев ,Э.А. Қамбаров_(Наманган муҳандислик-қурилиш институти)</i>	
ТАЛАБАЛАР БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ РОЛИ ХУСУСИДА.....	74
<i>t.f.n., dotsent O.R.Qo‘ychiev (Jizzax politexnika instituti)</i>	
“MATERIALSHUNOSLIK” FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INFORMATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI	76
<i>A.T.Nazarov_(Namangan davlat universiteti)</i>	
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ПЕДАГОГИК ҚАДРИЯТЛАР.....	78
<i>Г.Б. Нафасова_(Гулистон Давлат Университети)</i>	
ФИЗИКАНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЭВРИСТИК МАСАЛАЛАРНИ ТАНЛАШГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР	79